

O‘ZBEK MILLIY MUSIQA MEROSINING ZAMONAVIY ESTRADA SAN’ATIDAGI TALQINI (OZODBEK NAZARBEKOV IJODI ASOSIDA)

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati insitituti

*Registrator ofisi menedjeri **I.Urinov***

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati insitituti

An’anaviy xonandalik yo‘nalishi

*1-bosqich talabasi **O.Tirkashev***

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa san’atining ma’naviy ildizlari, xalq musiqa ijodiyotining ahamiyati hamda mustaqillik yillarida estrada san’atining rivoji tizimli tarzda yoritilgan. Ayniqsa, Ozodbek Nazarbekov ijodini tahlil qilish orqali milliy va zamonaviy musiqiy uslublarning uyg‘unligi ochib berilgan. Muallif san’atkorning hayoti, ijodiy shakllanish bosqichlari va sahna madaniyatini aniq dalillar asosida yoritgan. Maqola ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, musiqa san’ati, madaniyatshunoslik hamda san’at yo‘nalishidagi tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: milliy musiqa san’ati, xalq musiqa ijodiyoti, o‘zbek estradasi, milliy qadriyatlar, ijrochilik san’ati, sahna madaniyati, Ozodbek Nazarbekov, musiqiy meros, mustaqillik davri san’ati.

Abstract: This article systematically examines the spiritual foundations of Uzbek national musical art, the significance of folk music creativity, and the development of pop (estrada) music during the years of independence. In particular, the analysis of Ozodbek Nazarbekov’s creative work reveals the harmony between national and modern musical styles. The author presents the artist’s life, stages of creative formation, and stage performance culture based on concrete evidence. The article has scholarly and educational value and can serve as an important source for research in the fields of music art, cultural studies, and art studies.

Keywords: national music art, folk music creativity, Uzbek pop music, national values, performing arts, stage culture, Ozodbek Nazarbekov, musical heritage, art of the independence period.

Xalqimizning milliy-ma'naviy merosini musiqa san'atisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qadriyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'anaviy tarzda avlodan avlodlarga o'tib, xalqimizning buyuk ma'naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san'ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Shuning uchun ham, bu jarayon musiqa san'atining barcha kasbiylik ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlari uchun asos bo'lib, xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, yer yuzida mavjud xalqlar tarixiy shakllanish jarayonida insoniyatning eng go'zal fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan va qator an'analarni meros sifatida avloddan – avlodga yetkazib, avaylab kelganlar. Ayniqsa, ijtimoiy xayotdagi muxim voqea, omil va tadbirlarni, hamda, kundalik turmush bilan bog'liq bo'lgan urf – odat, qadriyat, udumlar va marosimlari saqlashga katta e'tibor berganlar.

Musiqa san'ati namunalarining talqinida ovoz vositasi, cholg'u talqini, raqs xarakatlari, imo – ishora kabi bir qator ijrochilik turlaridan iboratdir. Bevosita talqin jarayoni xam ijrochi namoyondalar tomonidan yakka, juft, guruhiy yoki ommaviy shakllarda amalga oshiriladi. Ovoz vositasi asosida talqin etuvchi namoyondalarni xalqimiz orasida ijro dasturlariga binoan qo'shiqchi, laparchi, termachi, navokash, navoog'oz, mutrib, mug'anniy, xonanda, ashulachi, dostonchi, baxshi, xalfa, shoir, g'azalxon, qissaxon, maddox, zokir, talqinchi, masnaviyxon, savtxon, nasrchi va xofiz kabi nomlar bilan atab kelishgan[1].

Mustaqillik yillarida o'zbek milliy estrada san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, an'anaviy ohanglar va zamonaviy musiqiy uslublarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etdi. Ana shunday murakkab va mas'uliyatli davrda sahnaga chiqqan, milliy estrada taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan san'atkorlardan biri — Ozodbek Nazarbekovdir.

Ozodbek Nazarbekov o‘zining o‘ziga xos ovozi, chuqur mazmunga ega qo‘shiqlari, sahna madaniyati va ijodiy mas’uliyati bilan qisqa vaqt ichida xalq e’tiborini qozondi. U nafaqat xonanda, balki milliy madaniyat targ‘ibotchisi, yoshlar uchun namuna bo‘la olgan ijodkor sifatida ham tanildi.

Ozodbek Nazarbekovning hayoti va ijodga kirib kelishi.

Ozodbek Ahmadovich Nazarbekov 1974-yil 7-mayda Andijon viloyati Shahrixon tumanida tug‘ilgan[1]. Bolalik chog‘laridanoq musiqa va qo‘shiqchilikka qiziqishi kuchli bo‘lgan. Milliy kuy-qo‘shiqlar, xalq og‘zaki ijodi namunalarini sevib tinglagani uning kelajakdagi ijodiy yo‘lini belgilab berdi.

Intervyularidan birida shunday degan: Bolaligimda musiqa maktabi uyimiz bilan o‘qiydigan umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘rtasida bo‘lgan. Oilamiz juda katta bo‘lganligi sababli musiqa maktabiga to‘lashga badal pulimiz bo‘lmagan, musiqani yaxshi ko‘rganligim sababli musiqa maktabiga borib eshikni orqasidan eshitib darslarni o‘rganar edim. O‘rtog‘im chiqishi bilan uni rubobini olib eshitganlarimni takrorlab olar edim. Keyin maktabdagi ustozimni uylariga borib 2- soatlab ishlarini qilganman. Maqsadim ularni mehrlarini qozonib xonasiga kirib rubob chalib eshitgan kuylarimni takrorlab yodlash bo‘lgan deydi Ozodbek Nazarbekov.

U professional ijodiy faoliyatini 1994-yildan boshlagan. Dastlabki yillarda u milliy ruhdagi qo‘shiqlar orqali tinglovchilar e’tiborini torta boshladi. 2000-yillarga kelib esa u o‘zbek estradasida mustahkam o‘rin egallagan san’atkorga aylandi. Uning ovozi tinglovchida darhol ishonch uyg‘otadigan, xotiraga tez singib ketadigan xususiyatga ega bo‘lib, bu uni tez mashhur qildi.

Ozodbek Nazarbekov ijodining dastlabki 1994-2005-yillar izlanishlari davri bo‘ldi. Bu yillarda u o‘z ovoz imkoniyatlarini, sahna madaniyatini va repertuar tanlash masalasini puxta shakllantirdi. Uning ilk qo‘shiqlarida sof tuyg‘ular, samimiyat va milliy ohanglar ustuvor edi.

2002–2008-yillar davomida u “O‘zbeknavo” estrada birlashmasida faoliyat yuritdi. Mazkur davr uning ijodiy jihatdan yetuklashuvida muhim ahamiyat kasb etdi. Aynan shu

yillarda Ozodbek Nazarbekovning qo‘shiqlari ommaviylashib, keng tinglovchilar auditoriyasiga yetib bordi.

2005-yildan boshlab Ozodbek Nazarbekov ijodi yangi bosqichga ko‘tarildi. “Yuragimdan kuylaganim sen”, “Devona ko‘ngil”, “Laylim”, “Majnun” kabi qo‘shiqlari uning ijodiy yuksalishiga turtki bo‘ldi. Bu asarlar sevgi, sadoqat, vatan va insoniy tuyg‘ularni tarannum etgani bilan ajralib turadi.

Har bir san’atkor qo‘shiq ijro etayotganda tahlil etilgan obraz maqsad-vazifasining muhim ekanligini yodda tutishi lozim. San’atkor ijro etayotgan har bir qo‘shiqlari uchun u xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin, ana shu qo‘shiqlarining o‘zigagina xos bo‘lgan jest-mimikalar ifodasini yaratadi. Har bir obraz timsolida qo‘shiqchi ana shu rolning hayoti bilan yashab, uning tili bilan so‘zlashi lozim. Mazkur jarayonda uning fizik holati ham: yurish turishi, ijro uslublari, harakatlari ham ana shu obraz qiyofasiga moslashib boradi. Bu borada Ozodbek Nazarbekov o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Mazkur davrda u mashhur shoir va bastakorlar bilan samarali hamkorlik qildi. Uning repertuarida Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Erkin Vohidov kabi yirik shoirlarning she‘rlari asosida yaratilgan qo‘shiqlar alohida o‘rin egallaydi.

Shuningdek, bu davrda Ozodbek Nazarbekov estrada janrining san’atkorlik qiyofasini ham o‘zgartirdi. U sahnada o‘zini madaniyatli, e’tiborli, tomoshabinga hurmat bilan muomala qiladigan ijodkor sifatida ko‘rsatdi. Bu esa yosh ijrochilar uchun namunali maktab bo‘lib xizmat qildi.

Ozodbek Nazarbekov nafaqat sahna san’atkori, balki madaniyat sohasida faol jamoatchi sifatida ham tanilgan. U turli yillarda televideniye loyihalarida, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etdi. Keyinchalik u madaniyat sohasida rahbarlik lavozimlarida ishladi va bugungi kunda O‘zbekiston madaniy hayotini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Bu holat uning san’atga bo‘lgan mas’uliyatini yanada oshirdi.

Bugungi kunda u nafaqat ijodkor, balki o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda ham ishtirok etib, yoshlar bilan ishlash, ularni musiqa madaniyati, milliy qadriyatlar bilan tanishtirishga e’tibor qaratmoqda.

Ozodbek Nazarbekov ijodini tahlil qilganda, avvalo uning musiqiy uslubiga e'tibor qaratish lozim. San'atkor qo'shiqlarida an'anaviy o'zbek kuy tizimi, xalqona ladlar va zamonaviy estrada elementlari uyg'unlashganini ko'rish mumkin. Bu uyg'unlik uning ijodini nafaqat zamonaviy, balki milliy ruhda jaranglashiga sabab bo'ladi.

Bu borada Ozodbek Nazarbekov o'ziga xos ijro maktabini yaratgan san'atkor sifatida ajralib turadi. Uning sahnadagi har bir chiqishi puxta o'ylangan, mazmunan boy va hissiy jihatdan ta'sirchan bo'lib, tomoshabin qalbiga bevosita yetib boradi. U ijro jarayonida qo'shiq matnining mazmunini chuqur his etadi, obraz ruhiyatini to'laqonli ochib bera oladi. Aynan shu jihat uning qo'shiqlarini oddiy estrada namunasidan ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega badiiy asar darajasiga ko'taradi.

Ozodbek Nazarbekov ijodida milliylik masalasi yetakchi o'rinni egallaydi. U an'anaviy o'zbek musiqasi ohanglarini zamonaviy estrada talablari bilan uyg'unlashtirib, milliy ruhni saqlab qolgan holda yangicha talqin etishga muvaffaq bo'lgan. Xalq kuylariga xos ohanglar, sharqona musiqiy bezaklar va sodda, ammo chuqur mazmunli matnlar uning repertuarining asosini tashkil etadi. Bu esa yosh avlod ongida milliy musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

San'atkorning ijodiy faoliyati nafaqat sahna bilan, balki keng jamoatchilik oldidagi ma'naviy mas'uliyat bilan ham chambarchas bog'liq. Uning qo'shiqlarida vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, muhabbat, sadoqat, insoniylik kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar tarannum etiladi. Biroq ijodkorning tomoshabin oldidagi burchi, mas'uliyati vazifasi o'zgarmaydi. Sahna san'ati orqali insonlarni ezgulikka chorlash har doimgidek mas'uliyat bo'lib qolaveradi[3]. Shu jihatdan Ozodbek Nazarbekov ijodi mustaqillik yillarida shakllangan o'zbek milliy estrada san'atining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Ozodbek Nazarbekov o'zbek milliy estrada san'atida o'ziga xos o'rin egallagan, milliy-ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy musiqiy ifoda vositalari orqali targ'ib etib kelayotgan yetuk san'atkordir. Uning ijodi xalq musiqa an'analari va zamonaviy estrada yo'nalishining muvaffaqiyatli uyg'unlashgan namunasi bo'lib, milliy musiqiy madaniyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. San'atkorning

sahnadagi obraz yaratish mahorati, ijro madaniyati va mazmunli repertuari uni nafaqat mashhur xonanda, balki yosh avlod uchun ibratli ijodkor sifatida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://ru.wikipedia.org/>
2. Begmatov Soibjon “Xofizlik san’ati” o’quv uslubiy qo‘llanma
3. Teatr jurnali. 2020/6 son. “Debyut – 2020” sahnada yangicha talqinlar” maqolasidan.